

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQOV LAZIZJON MAXMUD O‘G‘LI

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA
MILLATLAR VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR RIVOJI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida millatlar va
millatlararo munosabatlar rivoji 5

Холиков Лазизжон Махмудович

Развитие национальностей и межнациональных отношений в стратегии
развития Нового Узбекистана 23

Khalikov Lazizjon Makhmudovich

Evolution of Ethnicities and Interethnic Relations in the Development Strategy of
New Uzbekistan 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications works 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

XOLIQOV LAZIZJON MAXMUD O‘G‘LI

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA
MILLATLAR VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR RIVOJI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal768 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumayev Rustam G‘aniyevich
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maksuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Nazarov Nasriddin Atakulovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil “29” iyul soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1491 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “14” iyul kuni tarqatildi.
(2023-yil “14” iyul dagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipova O.T.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy o‘zgarishlar millat rivoji va millatlararo munosabatlarni umuminsoniy qadriyatlar tizimida qayta ko‘rib chiqish hamda uni hamjihatlik va tolerantlik asosida mustahkamlashni taqozo etmoqda. Bu zaruriyat millatlararo munosabatlarni optimallashtirishda xalqning boy ma‘naviy madaniyatiga, tarixiy o‘tmishiga, falsafiy merosiga tayanib, turli madaniyatlarning hamjihatligi, aloqasi va bir-biridan o‘zaro bahramand bo‘lish imkoniyatlarini ochib berishga bag‘ishlangan islohotlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, millatlararo totuvlik va hamjihatlik inqirozi, destruktiv g‘oyalar va g‘ayriinsoniy illatlarning davlatlararo hamdo‘stlik va yaqin qo‘shnichilik aloqalarini zaiflashtirayotgan davrda tajribadan o‘tgan ajdodlar merosidagi bag‘rikenglik tamoyillari orqali do‘stlik va hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash, tinchlik va barqarorlik munosabatlarini ta‘minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy tadqiqot markazlarida millat rivoji va millatlararo munosabatlarni yaxshilash to‘g‘risidagi zamonaviy qarashlar va konsepsiyalarga oid, shuningdek, milliy barqarorlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikka tahdid soluvchi zid destruktiv g‘oya va konsepsiyalarning zamonaviy ko‘rinishlari hamda ularni bartaraf etishga oid fundamental va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi hamdo‘stlik va yaqin qo‘shnichilik aloqalari millatlararo totuvlikning optimallashtirishida davr paradigmasi sifatida ijtimoiy-madaniy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hamdo‘stlik va yaqin qo‘shnichilik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish bilan aloqador bo‘lgan muammolarni nazariy-metodologik nuqtai nazardan tadqiq etish, ularni hal etishning konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyatga molik vazifaga aylanib, uni o‘rganishga bo‘lgan zarurat tobora ortib bormoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida millatlararo bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta‘minlash, ko‘p millatli yagona Vatan tuyg‘usini shakllantirish, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashga oid islohotlar olib borilmoqda. “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolar teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo‘yilgan”¹. Shu nuqtai nazardan, millatlararo munosabatlar istiqbolida ijtimoiy-ma‘naviy muhitni yanada mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, bu borada xalqaro hamkorlikni va do‘stona aloqalarni rivojlantirish hamda milliy-madaniy markazlarning faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2021. -Б. 306

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 19 maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 15 noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2017 yil 23 maydagi PQ-2993-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 25 dekabr 2017 yildagi 1018-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020 yil 17 noyabrdagi 723-son “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida millatni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni ta‘minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning konseptual g‘oyalari tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qiladi².

Jahonda tolerantlik masalasi asosan hozirgi zamon global muammolari hamda etnik munosabatlardagi o‘zgarishlarni tushunish kontekstida xorijlik olimlar Bras Frensis, R. Hughes, D. Gatti, D.Radebe, A.Munniksma, R.Vorlichek, P.Gurur, L.Gunnar, B.Ravinder, E.Havekes, A.S.Huynh tomonidan tadqiq etilgan³.

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1-жилд, 2019. – 592 б.; Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2-жилд, 2020. – 508 б.; Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 3-jild, 2019. – 400 b.; Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2021. – 464 б.

³ Bras Frensis. An agent-based model approach to understanding changes in ethnic relations: applications to neighbourhood ethnic composition and health. Degree: PhD. -University of Manchester, 2019. -232 p.; Hughes, Robert Paul. politics of ethnic diversity and ethnic rebellion: the escalation of ethnic tensions from 1946 to 2005. Degree: PhD, Sociology. -University of Kansas, 2014. - 208 p.; Gatti, DeShae C., An Examination of the Relationship Between Ethnic Identity Development, Cognitive Complexity, Differentiation of Self, and Reports of Racial and Ethnic Microaggressions. Electronic Theses and Dissertation. - Stephen f. Austin State University, 2017. 124 p.; Radebe, Diane Lindela. Teaching literature to create interracial tolerance. Dissertation: University of Johannesburg, 2012. 148 p.; Munniksma, Anke. Crossing ethnic boundaries: parental resistance to and consequences of adolescents’ cross-ethnic friendships. Degree: PhD, University of Groningen, 2013. 153 p.; Vorlíček, Radek. Social dynamics and interethnic relations in educational settings. - Charles University of Prague, 2017. 217 p.; Polat, Gurur. The making

MDH mamlakatlarida millatlararo bag'rikenglik mavzusi S.Alibekova, N.Vagabova, R.Valitova, L.Kuznesov, Y.Magomedova, A.Nekrasova, A.Purtova, V.Terentev, N.Yurovskix kabi olimlarning bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos jihatlari, bag'rikenglik tamoyillari va etnik muammolar bilan bog'liq muayyan jihatlari tadqiq etilgan⁴.

Mamlakatimizda millatlar va millatlararo munosabatlar rivojining mohiyatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar S.Otamurodov, I.Soifnazarov, N.Jo'rayev, Q.Nazarov, A.Ochildiyev, M.Musayev, I.Ergashev tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, O.Musayev, B.Boboyorov, N.Nazarov, F.Mardonova, B.Iminov, Z.Qodirova, R.Murtazayeva kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan millatlar va millatlararo munosabatlar masalalari tadqiq etilgan. Milliy mentalitetni rivojlantirish va destruktiv g'oyalar hamda millatlararo munosabat va xulq-atvor, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq xususiyatlar S.Choriyev, M.Xajiyeva, A.Sharipov tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan⁵.

and maintaining of ethnic inclusion: a global analysis. Degree: PhD, Universität Freiburg, 2022, 203 p.; Lemmer, Gunnar. Meta-Analytic Evaluations of Interventions to Improve Ethnic Attitudes. Degree: PhD, Fachbereich Psychologie, Philipps-Universität Marburg, 2011. 294 p.; Bhavnani, Ravinder. Essays on intraethnic and interethnic violence. Degree: PhD, Social Sciences, University of Michigan 2003. -24 p.; Havekes, E.A. Putting interethnic attitudes in context. The relationship between neighbourhood characteristics, interethnic attitudes and residential behavior. Utrecht University Repository, 2014. -257 p.; Huynh, Alex C. Uniquely Diverse: Ethnic Diversity and Interethnic Contact Predict Individualistic Values and Behaviour. - Ontario, Canada, 2018. -111 p.;

⁴ Алибекова С.Я. Социальная природа межнациональных конфликтов. Дисс.канд.философс.наук. -Махачкала, 2001. 181 с.; Вагабова Н. М. Этническая толерантность в поликультурном обществе. Дис. Канд. философс.наук -Махачкала, 2007. 162 с.; Валитова Р. Р. Толерантность как этическая проблема Дисс. канд. философс.наук, -Москва, 1997. 159 с.; Кузнецов Л. С. Культура толерантности в модернизирующемся региональном социуме: опыт культурфилософского анализа Дисс.канд.философс.наук, -Саранск, 2011. 153 с.; Магомедова Е. В. Толерантность как принцип культуры. Дисс.канд.философс.наук, -Ростов-на-Дону, 2000. 133 с.; Некрасова А.Н. Культура межнационального общения в молодежной среде: Дисс.докт.философс.наук. -Москва, 1992. 363 с.; Пуртова А. С. Особенности толерантности в обществе социального транзита Дисс.канд.наук, -Архангельск, 2012. 178 с.; Терентьев В. М. Этническое мировосприятие как духовно-практическое отражение действительности Дисс.канд.философс.наук, -Чебоксары, 2007. -141 с.; Юровских Н. Г. Толерантность как личностный и культурный феномен дисс. Канд. Философс.наук, -Омск, 2004. - 200 с.

⁵ Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. -356 б; Соифназаров И. Ёшларда бағрикенглик дунёқарашини шакллантиришнинг омиллари // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари илмий-маърифий журнал. –Тошкент: 2018. №2. -Б.46.; Жўраев Н. Тамаддунга даъват тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 264 б.; Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2011. - Б. 127.; Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкурaviй жараёнлар. –Тошкент: «Муҳаррир», 2009. -55 б.; Musayev M. Diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo hamjihatlikni ta'minlashda O'zbekiston tajribasi. // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. –Toshkent: 2018, -№ 4 (84). -В. 29.; Ergashev I. Milliy qadriyatlar: yoshlar, zamon va kelajak // Falsafa va huquq. –Toshkent: 2006. -№ 1. –В. 49.; Мусаев О. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларни ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари. Фалс.фан.докт.дис. автореф. - Тошкент: 2017. -59 б; Бобоёров Б Н. Жамият демократлашувида миллатлараро муносабатларни такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалс.фанл.б.ф.д. (PhD) дис. автореф. –Тошкент: 2019. – 46 б; Назаров Н.А. Марказий Осиё полиетник социумида миллатлараро муносабатлар такомиллашувининг фалсафий-функционал тадқиқи. Фалс. фанл. докт. дис. автореф. –Тошкент: 2019. – 58 б; Мардонова Ф.Б. Ўзбек халқининг ҳозирги замон ижтимоий-маънавий ҳаётида миллатлараро толерантлик (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалс.фанл.б.ф.д. (PhD) дис. автореф дис. автореф. – Самарқанд: 2020. –41 б; Иминов Б.Б. Инновацион маданий муносабатлар–миллатлараро тотувликни таъминлашнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари. Фалс.фанл. б.ф.д. (PhD) дис. автореф дис. автореф.–Наманган: 2021. – 47 б; Қодирова.З. Р., Шарипов А.Ж., Алимасов В.А., Каримова Э. Г., Мадаева Ш.О. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий - фалсафий масалалари. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2006. – 220 б.; Murtazayeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. –Toshkent: "Go to Print", 2020. –344 б.; Чориев А., Чориев С. Миллий истиқлол мафқураси ва баркамол инсон шахсини шакллантириш. Тошкент: Чўлпон, 2005. – Б. 224.; Хажиева М.С. Культура толерантности в контексте процессов глобализации: методология исследования, реалии и перспективы // Materials of the VI international scientific conference on May

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar mavzuni tadqiq etishda nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Bu tadqiqotlarda asosan etnik munosabatlardagi o'zgarishlar, milliy mentalitetni rivojlantirish, etnik xilma-xillik va millatlararo muloqot, qadriyatlar va xulq-atvor haqidagi g'oyalar tahlil etilib, bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos jihatlari, tamoyillari bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratilgan. Mazkur dissertatsiyada ulardan farqli ravishda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi zamon ijtimoiy-ma'naviy hayotida o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy rivojlanish omillariga hamda millatlararo munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish yo'nalishlarining ilmiy-falsafiy tahliliga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida millat rivoji va millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida millat rivoji va millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish va strategik o'zgarishlarni tadqiq etish;

millatlar o'rtasidagi munosabatlar rivoji to'g'risidagi zamonaviy konsepsiya va qarashlarning millatlararo totuvlikni ta'minlash jarayonlaridagi rolini asoslab berish;

millatlararo totuvlik va hamjihatlikka putur yetkazuvchi destruktiv g'oya va jarayonlar, ularning ko'rinishlarini milliy xavfsizlik va barqarorlikka ta'siri darajasini aniqlash;

davlatlararo hamdo'stlik va yaqin qo'shnichilik aloqalarining millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga ta'siri va xususiyatlarini tahlil etish;

millatlararo hamjihatlik va barqarorlikni mustahkamlashda milliy-madaniy markazlar faoliyatining o'rni va ularning ta'sirchan rolini asoslash;

madaniyatlararo integratsiyalashuv jarayonida millatlararo hamjihatlik va yaqin qo'shnichilik munosabatlari fenomenini rivojlantirish borasida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy aspektlari tanlab olingan.

13–14, 2021. – Prague: 2021.; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс.ф.д. дисс. –Бухоро: БухДУ, 2021. – Б. 257

Tadqiqotning predmeti Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining millatlararo munosabatlarni optimallashtirish bilan bog‘liq maqsadning realizatsiya jarayonini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

millatlararo munosabatlar tushunchasi, mohiyati, genezesi va evolyutsiyasiga oid etatistik, etnologik, etnosotsial, etnomadaniy, etnopsixologik, irqiy-etnosentrik, transsendental yondashuvlar, global ilmiy-nazariy konsepsiyalarning mamlakat yaxlitligi, huquq va erkinliklar kafolati, tinchlik va barqarorlik omili ekanligiga oid mohiyati falsafaning tadrijiylik va vorisiylik prinsiplari asosida aniqlashtirilgan;

Qadimgi Sharq va G‘arb mutafakkirlarining millatlararo hamjihatlik, yaqin qo‘shnichilik, tinchlik va barqarorlik, mamlakatlar bilan madaniy-ma‘rifiy hamkorlikning jahon sivilizatsiyasi yuksalishiga xizmat qilishi borasidagi qarashlarida madaniyatlararo muloqotga kirishish, milliy qadriyatlar integratsiyasi g‘oyalari ilgari surilganligi, sabr-toqatlilik, ahillik, urf-odat va an‘analarga asoslanish tamoyillari orqali bir-biri bilan o‘zaro aloqadorligi dalillangan;

millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashda milliy-madaniy markazlarning barcha millat vakillariga teng imkoniyat yaratib berishi, ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirib, yagona Vatan tuyg‘usi asosida birlashtirishi, bag‘rikenglik va tolerantlikka asoslangan muomala madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilish zarurati asoslab berilgan;

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida millatlararo munosabatlar istiqbolining ijtimoiy-ma‘naviy hayotda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda xalqaro hamkorlikni va do‘stona aloqalarni rivojlantirish tamoyillari umumjahon bag‘rikenglik deklaratsiyasining ruhida tarbiyalash, yoshlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy fikr yuritish va axloqiy qadriyatlarga asoslangan mulohaza yuritish prinsiplariga hamohangligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

millatlararo munosabatlar strategiyasi tushunchasi, mohiyati, genezesi va evolyutsiyasiga oid etatistik, etnologik, etnosotsial, etnomadaniy, etnopsixologik, irqiy-etnosentrik, transsendental yondashuvlarning metodologik ahamiyati ochib berilgan;

jamiyat hayotida millatlararo totuvlik, hamjihatlik va dinlararo bag‘rikenglik munosabatlarini mustahkamlash, milliy – madaniy markazlar faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish omillari asoslab berilgan;

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tolerantlik va bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqish hamda ularni boyitishning usullarini aniqlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan

olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jamiyatning, shu jumladan, yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi hamda bu jarayon etnik bag'rikenglikning axloqiy hodisa sifatidagi o'rni bilan bog'liq masalalarni tadqiq etishda metodologik asos sifatida, shuningdek, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashda keng ko'lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlilini amalga oshirish ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy va ijtimoiy tadqiqotlar, mazkur yo'nalishdagi jarayonlar rivojining monitoringini olib borishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari, "Ma'rifat targ'ibotchilari" jamiyati, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallari, axborot-tahliliy sharhlar tayyorlash va e'lon qilishda, yoshlar tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari, ma'ruzalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda, mazkur sohadagi xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha takliflar va tavsiyalar tayyorlash amaliyotida ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlash hamda OAVda shu mavzuga doir ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida millat rivoji va millatlararo munosabatlar takomillashuvini tadqiq etish doirasida ishlab chiqilgan xulosalar asosida:

millatlararo munosabatlar tushunchasi, mohiyati, genezesi va evolyutsiyasiga oid etatistik, etnologik, etnosotsial, etnomadaniy, etnopsixologik, irqiy-etnosentrik, transsendental yondashuvlar, global ilmiy-nazariy konsepsiyalarning mamlakat yaxlitligi, huquq va erkinliklar kafolati, tinchlik va barqarorlik omili ekanligiga oid ilmiy xulosalar va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2021-2022 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan 2022 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi X bo'limining "Mamlakatimizda keng nishonlanadigan bayramlar, shonli sanalarni keng aholi orasida targ'ib qilishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish 45-bandi Navro'z bayrami, uning tarixi va qadriyatlari bilan bog'liq udumlar targ'ibotiga oid "Qadriyatlar qadr topgan yurt" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-

ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 10-yanvardagi 5-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, jamiyatda turli millatlar vakillari o'rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni ta'minlash, vatandoshlarimiz ongida ko'p millatli yagona Vatan tuyg'usini mustahkamlash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilgan;

Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining millatlararo hamjihatlik, yaqin qo'shnichilik, tinchlik va barqarorlik, mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy hamkorlikning jahon sivilizatsiyasi yuksalishiga xizmat qilishi borasidagi qarashlarida madaniyatlararo muloqotga kirishish, milliy qadriyatlar integratsiyasi g'oyalari ilgari surilganligi, sabr-toqatlilik, ahillik, urf-odat va an'analarga asoslanish tamoyillari orqali bir-biri bilan o'zaro aloqadorligiga oid nazariy umumlashma va xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-88-son "O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida tolerantlik tamoyilining tutgan o'rni (qadimgi davrdan to hozirgi vaqtga qadar)" (2017-2020 yy) fundamental ilmiy tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 16-fevraldagi 04/11-826-son ma'lumotnomasi). Natijada, millatlar va millatlararo munosabatlar to'g'risidagi zamonaviy qarashlar, konsepsiyalar va ularning dinamikasiga ta'sir ko'rsatgan falsafiy g'oya hamda qarashlarning evolyutsiyasini qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashda milliy-madaniy markazlarning barcha millat vakillariga teng imkoniyat yaratib berishi, ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirib, yagona Vatan tuyg'usi asosida birlashtirishi, bag'rikenglik va tolerantlikka asoslangan muomala madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilish zaruratiga doir ilmiy yangiliklar va tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yilda efirga uzatilgan "Asrlarning asraganlari", "Najot bilimda", "Sakkizinchi mo'jiza" teleko'rsatuvlari, "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil 2 fevraldagi 27-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning xalqimizda istiqomat qiluvchi barcha millatlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash, doimo hushyor va ogoh bo'lib, tinchlik uchun kurashib yashash haqidagi ilmiy-tasavvur va tushunchalarning boyishiga, ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida millatlararo munosabatlar istiqbolining ijtimoiy-ma'naviy hayotda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda xalqaro hamkorlikni va do'stona aloqalarni rivojlantirish tamoyillari umumjahon bag'rikenglik deklaratsiyasining ruhida tarbiyalash, yoshlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy fikr yuritish va axloqiy qadriyatlarga asoslangan mulohaza yuritish prinsiplariga hamohangligiga oid ilmiy yangiliklar va nazariy umumlashmalardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining professional ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlarining 2022/2023-

o‘quv yilining 1-yarim yilligiga mo‘ljallangan namunaviy ish rejasining III bobi 12-bandidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqida bildirilgan fikrlar va ularning yoshlar ijtimoiy hayotidagi ahamiyatini yoritib berish bo‘yicha “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!” shiori ostida taniqli yosh olimlar, sport ustalari va mutaxassislar ishtirokida targ‘ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining 2023 yil 11-yanvardagi 04-13/22-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy hayotdagi tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag‘rikenglik va insonparvarlik fazilatlarining yuksalishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalari e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari, asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqot bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning “**Millatlar va millatlararo munosabatlarni o‘rganishning nazariy-metodologik va konseptual asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida millatlararo munosabatlarning yangi taraqqiyot bosqichidagi o‘zgarishlar ma‘no-mazmunining nazariy-falsafiy jihatlarini o‘rganishga e‘tibor qaratilgan. “Millat”, “millatlararo munosabatlar”, tushunchalarining ma‘no-mazmuni, millatlararo munosabatlar to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari demokratik o‘zgarishlar nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Bugungi kunda “millat” va “millatlararo munosabatlar” tushunchalarining mazmun-mohiyatiga oid xilma-xil ta‘riflar keltirib o‘tilgan⁶. Buning asosiy sababi esa mazkur tushunchalarning ijtimoiy-falsafiy munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etishi va serqirraligidadir. Jumladan, falsafa qomusiy lug‘atida, “millat – til, ma‘naviyat, milliy o‘zlikni anglash ruhiyati yagonaligi asosida

⁶Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: «Шарк», 2001. – 464 б; Иброҳимов А, Султонов Х, Жўраев Н, Ватан туйғуси, -Тошкент: «Ўзбекистон», 1997. – 439 б.; Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси, -Тошкент: «Ўқитувчи», 1994. – 320 б.

muayyan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bogʻlangan mustaqil subyekt sifatida oʻziga xos moddiy va maʼnaviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi”⁷ sifatida taʼriflangan. Millat maʼlum hududda barqaror yashab, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib, kishilarning maʼnaviy-ruhiy salohiyat yagonaligi asosida shakllanadi.

S.Otamurodov bergan falsafiy talqinga koʻra, “millatlararo munosabatlar mamlakatlar hududlarida yashayotgan turli millatlar oʻrtasida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼrifiy sohalarda amal qiladigan faoliyatlar majmuasi”⁸ sifatida eʼtirof etilgan.

Dissertatsiyada Sharq va Gʻarb mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida ham millatlararo munosabatlarning takomillashib borishi va uning jamiyat hayotidagi oʻrni dolzarb ahamiyat kasb etishi taʼkidlangan. Jumladan, Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham millatlar oʻrtasidagi munosabatlar, millat vakillarning osoyishta hayot kechirishga boʻlgan ehtiyoji va unga xayrixoh boʻlib kelganliklari, odamlarning hamjihatlikda, tinch-totuv yashash orzusi oʻz ifodasini topadi⁹. Shuningdek, Xitoy faylasufi Konfutsiy “har bir millat boshqa bir millat bilan oʻzaro munosabatga kirishar ekan, ular oʻrtasidagi munosabat birinchi navbatda oʻzaro bir-birining urf-odat, anʼana va qadriyatlarini hurmat qilinishiga asoslanishi lozimligini “boshqa millat vakillarining marosimlarini ham oʻz qadriyatlarining bir qismi sifatida hurmat qila olish bagʻrikenglikning muhim elementidir”¹⁰ degan fikrlari orqali asoslab beradi.

Forobiy millatlararo munosabatlar xususida “har qanday millat vakilining munosabatlarini birlashtiruvchi boshlangʻich asos hamjihatlik, totuvlik va insoniylikdir, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli oʻzaro tinchlikda yashamoqlari lozim”¹¹, - deydi. Buyuk davlat arbobi va madaniyat homiysi Amir Temur “Mening dargohimga iltijo qilib, panoh istab kelgan turku tojik, arabu ajam toifalaridan boʻlganlar haqidagi tuzugi”da “yana amr qildimki, uzoq-yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan boʻlsa ham, davlatim dasturxonini neʼmatidan uni quruq qaytarmasinlar”¹² - degan fikrlarida har bir millat vakiliga nisbatan hurmat va ehtiromda boʻlganligini koʻrish mumkin.

Tadqiqotchi fikricha, Sharq mutafakkirlarining millatlararo munosabatlar, tinchlik, hamjihatlik va tolerantlik toʻgʻrisidagi qarashlari Gʻarb faylasuflari fikrlari bilan hamohangdir. Jumladan, Platon turli millatlarning qiziqishlari, xarakter xususiyatlari va fazilatlarini tadqiq etib, ularning turlicha ekanligiga guvoh boʻladi. U “yevropaliklarda harbiy xizmat, yunonlarda faylasuflar va Finikiyaliklarda esa mol-dunyoni sevish va uni qadrlash”¹³ fazilatlarini koʻproq ekanligini taʼkidlaydi. Aristotel esa, har bir millatning oʻziga xos boʻlgan jihatlari mavjudligini, ular tili,

⁷ Назаров Қ. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: «Шарқ», 2004. – Б. 261

⁸ Отамуродов С. Глобализация и миллат. –Тошкент: «Янги аср авлоди», 2008. – Б. 64.

⁹ Жўраев Н. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. - Тошкент: «Шарқ», 2001. - Б. 375.

¹⁰ Robert Cummings Neville. Confucianism and toleration. -P. 34.

¹¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. / Масъул муҳаррирлар: М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. - Б. 286.

¹² Amir Temur. Temur tuzuklari. / Nashrga tayyorlovchi: Boʻrivoy Ahmedov. –Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. -B. 88.

¹³ Rachana Kamtekar. Distinction without a difference? Race and genos in Plato. 2002. -P. 6.

dini, madaniyat va urf-odatlariga ko‘ra turlicha ekanligini: “Milliy o‘ziga xoslik millatlarni irqi, etnik kelib chiqishi va tug‘ilgan joyi kabi tanlanmagan xususiyatlar, shuningdek, madaniyat yoki din kabi tanlangan xususiyatlar asosida ajratib turadi”¹⁴ - deb ta’kidlab o‘tadi.

Tomas Gobbsning fikricha, milliy ozchilikka nisbatan qilingan har qanday zo‘ravonlik, ular o‘rtasida norozilikni keltirib chiqarishga sabab bo‘lishi va jamiyat xavfsizligiga raxna solishi mumkin. Shuning uchun ham u millatlararo munosabatlar bag‘rikenglikka asoslanishi zarur ekanligini alohida ta’kidlab, “bag‘rikenglik fuqarolar uchun xavfsizlik va tinchlikni ta’minlash va boshqa millat vakillarining qadriyatlarini yuksak baholashdir”¹⁵ deydi. Sh.Monteskyo har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy yangilik va islohotlar o‘sha yerda istiqomat qiladigan millat va elat vakillarining ehtiyojidan kelib chiqib, “millatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak”¹⁶ - deb ta’kidlab o‘tgan. I.Kantning fikricha, “har qanday millat vakilini u qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish tom ma’nodagi bag‘rikenglikdir”¹⁷.

Dissertatsiyada millat va millatlararo munosabatlar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilar ekan, uning falsafadagi yakkalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari bilan aloqadorligini, obyektiv olamdagi ushbu munosabatlarning o‘zaro bog‘lanishi va taraqqiyotini o‘zida ifoda etganligining guvohi bo‘lish mumkin.

Jahon tamaddunining ulkan yutug‘i sifatida e’tirof etiladigan G‘arbdagi tolerantlik g‘oyasida ilg‘or tajribalar mujassamligi sharqona millatlararo bag‘rikenglik munosabatlarida qadimgi urf-odat va an‘analarga asoslanishi, bunda ajdodlar o‘giti va tajribasi uning alohidalik xususiyatlarini o‘zida mujassam etishi ko‘rsatilgan. Millatlararo munosabatlarning yangi taraqqiyot bosqichidagi umumiylik jihati sifatida, obyektiv reallikning universal hodisalarda mavjud bo‘lgan o‘ziga xos jihatlarining majmui tushunilishi ta’kidlangan.

Dissertatsiyada millatlararo munosabatlarning yangi taraqqiyot bosqichida nafaqat umumiylik va yakkalik qonunlariga amal qilishi, shuningdek, o‘zida xususiylik qonuniyatlarini ham ifoda etishi tahlil etilgan. Millatlararo munosabatlarning o‘zbek xalqiga xos jihatlari uning saxiylik, mehmondo‘stlik, insonparvarlik, keksalarni e‘zozlash singari fazilatlarida namoyon bo‘lishi ta’kidlangan.

Dissertatsiyada millatlararo munosabatlar yangi bosqichining mohiyati uning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, uning boshqa narsa va hodisalar bilan umumiy jihatlari hisobga olingandagina uni to‘g‘ri anglash mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

¹⁴ Abigail Pfister Aguilar. Virtue nationalism: an Aristotelian defense of the nation. The Ohio State University. 2007. -P. 60

¹⁵ Doug Magendanz. Heretics, Atheists and Infidels: Religious Tolerance and Intolerance in Grotius, Hobbes and Kant. 2019.-P. 23.

¹⁶ Keegan Callanan. Montesquieu, Liberalism and the Critique of Political Universalism. An abstract of a dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in the Department of Political Science in the Graduate School of Duke University. 2011. -P. 39.

¹⁷ Petkova T. The Idea of Tolerance – John Locke and Immanuel Kant. // Open Journal for Studies in Philosophy, 2019, 3(1), 17-24.-P. 23.

Millatlararo munosabatlar mexanizmining yangi taraqqiyot bosqichidagi o'ziga xos ustuvor jihatlari tahlil etilib, ular quyidagilarda namoyon bo'lishi asoslab berilgan:

birinchidan, jahon xalqlarining boshqa mamlakatlar bilan do'stona hamkorlik va yaqin qo'shnichilik munosabatlarining mustahkamlanishida tolerantlik prinsiplari muhim ahamiyat kasb etadi;

ikkinchidan, jahon mamlakatlari amaliyotida millatlararo munosabatlarni mustahkamlash va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda, mamlakat hududida istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillariga teng imkoniyatlar yaratib berilgan va millatlar madaniyatini asrab-avaylash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishiga oid huquqiy asoslar ishlab chiqilgan;

uchinchidan, ijtimoiy hayotda turli millat va elatlar o'rtasidagi tinchlik, o'zaro hurmat, bir-birini tushunish, milliy, irqiy, diniy kamsitilishlarga yo'l qo'yilmasligi xalqaro huquqda e'tirof etilgan normalar asosida tartibga solinmoqda;

to'rtinchidan, jahon hamjamiyatida millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, barcha millat va elat vakillarining huquqiy erkinliklarini himoya qilish maqsadida barcha mamlakatlarda baynalmilal markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgan;

Tadqiqot ishida bundan tashqari, millatlar va millatlararo munosabatlar to'g'risida etistik, etnologik, etnosotsial, etnomadaniy, etnopsixologik, irqiy-etnosentrizm, transsendental multikulturatsiya va global konsepsiyalar mavjud bo'lib, mazkur konsepsiyalar millatlar va millatlararo munosabatlar masalalarini tadqiq etishda muhim o'rin egallashi asoslab berilgan. Hozirgi kunda millatlar va millatlararo munosabatlar to'g'risidagi zamonaviy qarashlar va konsepsiyalar haqida to'rtta nazariy yondashuv ko'rsatib o'tilgan. "Bu yondashuvlar primordializm, instrumentalizm, materializm va konstruktivizmdan iborat"¹⁸.

Umuman olganda, dissertatsiyada millatlararo munosabatlar to'g'risidagi xilma-xil konsepsiya va yondashuvlarni hozirgi davrda ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi, unga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib borayotganligi alohida ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning "**Millatlar va millatlararo munosabatlar rivojida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash omillari**" deb nomlangan ikkinchi bobida millatlar va millatlararo munosabatlar rivojida millatlararo totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash omillarining nazariy-falsafiy jihatlari tahlil etilgan. Unda jamiyatdagi barqaror taraqqiyotning ikki qanoti davlatlararo hamdo'stlik va yaqin qo'shnichilik, ularning o'zaro dialektik aloqadorligi o'rganilgan. Shuningdek, millatlararo totuvlikka raxna soluvchi destruktiv g'oya va jarayonlarning mazmun-mohiyati, ularning barqarorlikka salbiy ta'sirlari tahlil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda, dunyo miqyosida turli kelishmovchilik va ziddiyatlar avj olib, osuda hayotimiz, hamjihatligimizga nisbatan tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda "ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatimizni yanada birlashtirish,

¹⁸Wan, E. and Vanderwerf, M. (2009) A Review of the Literature on Ethnicity, National Identity, and Related Missiological Studies, www.globalmissiology.org (accessed 2 June 2013)

yoshlarimizda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuygʻusini yuksaltirish, alohida ahamiyat kasb etmoqda”¹⁹.

Dissertatsiyada millatlararo totuvlik va hamjihatlikka zid destruktiv gʻoya va jarayonlar koʻrinishlari mushohada qilinib, destruktiv gʻoya va jarayonlarning mohiyatini ochib berilgan. Jumladan, falsafa qomusiy lugʻatida destruktiv gʻoyaga “insonparvarlik tamoyiliga zid boʻlgan, bir millatni boshqasidan ustun qoʻyadigan, oliy irq daʼvosida boshqa xalqlarni qirgʻin qilishga chaqiradigan, jamiyatni tarafkashlarga ajratib, boʻlib tashlashga xizmat qiladigan gʻoyalar majmuidir”²⁰ - deya taʼrif berilgan. Destruktiv gʻoyalar milliy barqarorlikka zid boʻlgan, jamiyatni separatizmga chorlab, boʻlib tashlaydigan, bir millatni ikkinchi bir millatdan ustun qoʻyadigan buzgʻunchi gʻoyalar tizimi ekanligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyada bugungi kunda millatlararo totuvlik va hamjihatlikka raxna soluvchi quyidagi destruktiv gʻoya va jarayonlar tahlil etilgan:

Antisemitizm - “yahudiylarga nisbatan dushmanlarcha munosabatda boʻlish, ularni irqiy va milliy kamsitish, milliy va diniy bidʼat-xurofot”²¹. Antisemitizm ksenofobiyaning bir turi hisoblanib, semit tillari guruhiga kiruvchi yahudiy millatiga nisbatan adovat va dushmanlikni bildiruvchi destruktiv gʻoyadir.

Assimilyatsiya – “ozchilikning koʻpchilik aholi ichiga singishib ketishi, bunda ozchilik aholi hukmron madaniyat meʼyorlari va qadriyatlarini qabul qiladi”²². Assimilyatsiyaning millatlararo munosabatlarga taʼsiri uning ixtiyoriy shakli, yaʼni boshqa millat madaniyatini anglash va hurmat qilish, turli millat vakillari bilan turmush qurishi hamda assimilyatsiyaning majburiy (zoʻravonlikka asoslangan) shakli, yaʼni harbiy anneksiya, qisman qirgʻin qilish (genotsid), ayrim millatlarni madaniy va til bilan bogʻliq masalalarini bostirishga qaratilgan majburiy koʻchirish siyosati sifatida qaraladi.

Etnosentrizm – “oʻz xalqi xulqi, madaniyati, urf-odat va qadriyatlarning boshqa xalqlarga xos boʻlgan shunday xususiyatlarni baholash uchun asos qilib olinishi”²³. Etnosentrizm ijtimoiy hayotda maʼlum bir etnosning “biz” va “ular” kabi ikkiga ajratib, bir millatni boshqasiga qarshi qoʻyilishidir. Har bir millatning qadriyati va anʼanalarini baholashda ikkinchi bir millatni qadriyat va anʼanalarini namuna sifatida koʻrsatish mumkin emas. Chunki har bir millat oʻziga xos ijtimoiy fenomen hisoblanadi.

Ksenelatsiya - jamiyat farovonligi uchun nomaqbul deb hisoblangan begona millat vakillarni mamlakat hududidan haydashni nazarda tutuvchi amaliyot shaklidir.

Ksenofobiya - bu boshqa millat vakillarining qarashlari, urf-odatlari va anʼanalariga nisbatan bepisandlik va ularga nisbatan hurmatsizlik qilish va ularni tan olmaslikda namoyon boʻladi. Jamiyatda “begona” sifatida qaraladigan boshqa millat

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2-жилд, 2020. -Б.452.

²⁰ Назаров Қ. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: «Шарқ», 2004.– Б. 67.

²¹ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. -Тошкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2022. - Б. 86.

²² Энтони Гидденс. Социология. -Тошкент: «Шарқ», 2002. -В. 830.

²³ Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. -Б. 387.

vakillarining mamlakat ijtimoiy hayotidan chetlatilishiga, ularning siyosatda, ishda, o'qish va ijtimoiy ta'minotda kamsitilishiga qaratilgan. Ksenofobiya o'z mohiyatiga ko'ra, madaniy ratsizmga yaqin bo'lsa-da, undan boshqa bir millatning immanent fazilatlari asosida emas, balki uning xatti-harakati, turmush tarzi va boshqa jihatlarini yoqtirmasligi jihati bilan farq qiladi.

Millatchilik – “millatni bir-biridan ayirish va ma'lum bir millatning pozitsiyasini boshqa millatga nisbatan yuqori qo'yish, o'z millati manfaatlarini ustuvor qo'yib, boshqa xalqlarning ehtiyoj va manfaatlariga nigilistik ruhda qarash sifatida ta'riflanishi”²⁴dir.

Shovinizm - insoniyatning yagona birlik sifatida mavjud bo'lishiga va taraqqiy etishiga xavf soluvchi mafkura deb aytiladi. “Shovinizm-millatchilikning o'zga millatlarni kamsitish, tahqirlash, o'z millatini boshqa millatdan ustun qo'yish, milliy takabburlik, milliy xudbinlik illatlarini o'zida mujassam etgan o'ta tajovuzkor shakli”²⁵ sifatida talqin etilgan. Jahondagi boshqa bir millatlarning dunyo tamaddunidagi o'rni, bugungi kundagi roli hamda ularning ma'naviy-madaniy o'ziga xos milliy jihatlarini mensimaslik va hurmatsizlik ruhida qarash shaklida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada hozirgi kunda O'zbekistonda tinchlik va yaqin qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash va ta'minlash maqsadida o'zining o'tmishi, madaniyatlararo yaqinligi, milliy va diniy qadriyatlar mushtarak bo'lgan Markaziy Osiyodagi Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston mamlakatlari bilan o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'yib kelayotganligi falsafiy jihatdan tadqiq etilgan.

